Ibragimova Fazilat Erkinovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti kafedra mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent; fazilatxon81@mail.ru)

SO‘ROQ GAPLARNING SINTAKTIK LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘roq gaplarning badiiy matndagi xususiyatlari, xususan, emotsional-ekspressivlik ifodalashi, obrazlilik, tasviriylikni namoyon qiluvchi belgilari, so‘roq gaplarning turlari va ularning lingvopoetik imkoniyatlarining farqli jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: sintaktik lingvopoetika, emotsional-ekspressivlik, so‘roq gaplar, so‘roq mazmuni, sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, so‘roq gaplarni shakllantiruvchi grammatik vositalar, intonatsiya, so‘z tartibi.*

Ибрагимова Фазилат Эркиновна (заведующая кафедрой Джизакского государственного педагогического университета, кандидат филологических наук, доцент; fazilatxon81@mail.ru)

СИНТАКСИЧЕСКАЯ ЛИНГВОПОЭТИКА ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются характеристики вопросительных предложений в литературных текстах, в частности, выражение эмоциональной выразительности, образность, знаки образности, типы вопросительных предложений и различные аспекты их лингвопоэтического потенциала.*

Ключевые слова: *синтаксическая лингвопоэтика, эмоциональная выразительность, вопросительные предложения, вопросительное содержание, чисто вопросительные предложения, риторические вопросительные предложения, грамматические средства образования вопросительных предложений, интонация, порядок слов.*

Ibragimova Fazilat Erkinovna (Head of Department, Jizzakh State Pedagogical University, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor; fazilatxon81@mail.ru)

SYNTACTIC LINGUOPOETICS OF INTERROGATIVE SENTENCES

Annotation. *This article discusses the characteristics of interrogative sentences in literary texts, in particular, the expression of emotional-expressiveness, figurativeness, signs of imagery, types of interrogative sentences, and different aspects of their linguopoetic potential.*

Keywords: *syntactic linguopoetics, emotional-expressiveness, interrogative sentences, interrogative content, pure interrogative sentences, rhetorical interrogative sentences, grammatical means of forming interrogative sentences, intonation, word order.*

Kirish. O‘zbek tilining ekspressiv-stilistik xususiyatlarini atroflicha tahlil etgan tilshunos A.Abdullayev o‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanish yo‘llari haqida ayni fikrlarni bildirgan: “Ekspressivlik, emotsionallik ifodalashda sintaktik usul va priyomlar alohida o‘rin tutadi. Bunday usul va priyomlar xilmaxil bo‘lib, nutqda obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik, ekspressivlik kabilarni yuzaga keltiradi. Bunday priyom va vositalar tulshunoslikda sintaktik figuralar, stilistik figuralar kabi terminlar bilan yuritiladi. Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi yoki qo‘llanmaslik hollari, antiteza, monolog, sukut qilish (umolchaniya), inversiya, ritorik so‘roq, takroriy gaplar kabilar stilistik priyomlar bo‘lib, ular fikrning o‘ta ta’sirchanligi ekspressiv, emotsionalligi uchun xizmat qiladi”[1]. Mazkur maqolada ekspressivlik ifodalashning sintaktik usullaridan biri so‘roq gaplarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda so‘roq gaplar turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Jumladan, N.D.Arutyunova *nega* tipli dialogik replikalar masalasini o‘rgangan, shu bilan birga, diologik iqtibos haqida aniqrog‘i “o‘zgadan qarz olingan jumla”lar haqida to‘xtab o‘tilgan.[2] E.V.Paducheva dialogik savol-javoblarning mazmuniy tuzilishiga bag‘ishlangan ishida savol-javob replikalarini mazmuniy tuzilishi va ularning mutanosibligiga ko‘ra bir necha guruhlarga birlashtiradi:[3] 1) to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar; 2) to‘liq va noto‘liq javoblar; 3) savolning o‘zida javobning turishi; 4) savolga javob berilmaydigan javoblar; 5) savolning boshlang‘ich taxminiga rioya qiladigan javoblar; 6) savolning boshlang‘ich taxminiga rioya qilmaydigan javoblar. Mazmuniy guruhlarini quyidagicha bo‘lingan: umumiy, alternativ va maxsus guruhlarga bo‘lib o‘rgangan.[4]

F.Karimova *nega* komponentli savol-javob dialoglarida doimo sof so‘roq mazmunini ifodalamasligini, ular, asosan, ikki xil mazmun berishini ifodalashini ko‘rsatadi: “1) *nega* so‘roq so‘zi borliqdagi narsa

[1] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Монография, Тошкент, “Фан”, 1983, 93-бет.
[2] Арутюнова Н.Д. Некоторые типы диалогических реакций и «почему» – реплики в русском языке. Филологические науки. М., 1970, № 3, с. 44–58.
[3] Падучева Е.В. Вопросно-ответное соответствие. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. М., “Наука”, 1985, с. 234–240.
[4] Падучнва Е.В. Ko‘rsatilgan asar. 236-bet.

va hodisaning sababi yoki nega yuz berganini aniqlash (kommunikativ) vazifasini bajaradi; 2) *nega* so‘rog‘i tinglovchidan javob kutmay, so‘zlovchining boshqa subyektiv-pragmatik niyatining amalga oshishi uchun xizmat qiladi”.[1]

F.Karimova *nega* so‘roq so‘zli muloqot birliklaridagi tasdiq mazmuni orqali inkor, inkor mazmuni orqali tasdiq presuppozitsiyasining ifodalanishini ham quyidagi misollarda ko‘rsatadi:

1. Inkor ma’nosi. – *Xatga achchig‘ingiz kelgani yo‘qmi? – deb so‘radi Sultonxon.*

- Yo‘q, nega? (Achchig‘im kelmadi). (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”).

2. Buyruq ma’nosi. – *Sizlar-chi, sizlar nega haydamadinglar? (Haydashlaring kerak edi).* (X.Sulton. “Bir dam ko‘zingni yum”).

3. Tinchlantirish ma’nosi. – *E, yanagi gal bo‘ladimi, yoqmi... – deb qo‘l siltadi To‘pori. – Sizga bir ko‘rsatay deb edim.*

– Nega buncha kuyunasiz, (kuyunmang) rais aka, aytdim-ku, yanagi gal kelganda ko‘rarmiz. (Murod Muhammad Do‘st. “Lolazor”).

4. Tasdiq ma’nosi. – *Ming so‘m?! Rostmi?*

– Nega yolg‘on bo‘lsin? Ming so‘mlik chek berdim. (Yolg‘onmas, rost) (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”).

5. Majburlash ma’nosi. – *Hamma gap shunda-da, xumpar! Nega yo‘talmayapsan?! (Yo‘tal!).*

– Nega yo‘talishim kerak? (Yo‘talmayman) (O‘.Hoshimov. “Ko‘kyo‘tal”).[2]

Ushbu misollarda yashirin inkor ma’nosi *nega* komponenti orqali ifodalanayapti. Bunday ma’nolar so‘roq gapning tuzilishi, talaffuzi, gapdagi vaziyatiga qarab turli ma’no qirralarini ifodalashi mumkin.

D.Lutfullayevaning tadqiqotlarida bir necha sintaktik qoliplar orqali ifodalangan yashirin ma’no haqida mulohazalar bayon etilgan. Olima so‘roqni ifodalovchi sintantik birliklar tarkibida *qanday, qayoqda, qachon, qani, qanaqa, qayerdan, nimasi, kimda* kabi so‘roq olmoshlari bilan boshlanuvchi sintaktik qoliplar mavjud ekanligini ko‘rsatadi[3].

Tahlil va natijalar. Ko‘rinadiki, sodda gaplarda faqat so‘roq emas, balki so‘roq bilan birga, turli hayajonlar, tuyg‘ular ifodalanadi. Masalan,

1. So‘roq+hayratlanish: *Nima?! Shu hammasi mengami?*
2. So‘roq+buyruq: *Tezroq yurmaysanmi?!*
3. So‘roq+hayajon: *U keldimi?!*
4. So‘roq+gumon, shubha: *Soat besh bo‘ldi. Qorong‘iga qolib ketmacmikinmiz?*
5. So‘roq+taxmin: *Siz birinchi kursda o‘qiysizmi?*
6. So‘roq+darak (hukm): *Kim mendan tortib oladi?*
7. So‘roq+taajjub: *Ketdi. O‘qishchi?*

Bunday ko‘rinishlar ham, aslida, javob talab qiladigan so‘roq gapdan kelib chiqadi. So‘roq-darak gap o‘z xususiyatiga ko‘ra, darak gapga to‘g‘ri keladi, ammo bunday gapda xabar kuchli ravishda ifodalanadi.

Tahlil davomida so‘roq gaplarning kommunikativlik belgisiga ko‘ra, ikki xil turini ajratdik:

1. Yakka so‘roqlar.
2. Jamlangan so‘roqlar.

Yakka so‘roqlar kommunikativ vaziyatda suhbatdoshdan tinglovchiga qaratiladi. Tinglovchi javob beradi:

–Qaysarlik ham evi bilan-da... – u bir oz jim qoldi. So‘ng Anvarga yaqinlashib, uni yelkasidan tutdi. – Hech bo‘lmasa, bir kunga chiqarsan. To‘yimga borarsan, kuyovjo‘ra bo‘larsan?

Bu gapdan keyin Anvarning ko‘zlariga insof nuri qaytib, yuziga qizillik yugurdi.

–Uylanyapsanmi? Qutlug‘ bo‘lsin. Shuni oldinroq aytmaysanmi? Xo‘p, bir kunga chiqaman. Kimga uylanyapsan, sir emasmi?

Elchin yangilikni eshitib, qochib ketmasin, degandek Anvarning yelkasini yanada mahkamroq ushladi:

–Asadbekning qizini olyapman, – dedi do‘stiga tikilib. (Tohir Malik. Shaytanat).

Ikkinchi turda jamlangan so‘roq gaplar ikki va undan ortiq bo‘lib, o‘z xususiyatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

---

[1] Karimova F. O‘zbek tilidagi muloqot matnlarining pragmalingvistik va psixolingvistik xususiyatlari. T., 2025, 83-bet.

[2] Karimova F. O‘sha asar. O‘sha bet.

[3] Лутфуллаева Д. Содда гапларда йўқлик маъносининг яширин ифодаланиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Тошкент, 2001, 5-son, 42–45-betlar.

1. Tashqi kommunikativ belgiga koʻra soʻroq gaplar.
2. Ichki kommunikativ belgiga koʻra soʻroq gaplar.

Tashqi kommunikativ belgiga koʻra soʻroq gaplar jonli talaffuz qilinadi, yaʼni tashqi nutq orqali reallashadi. Masalan:

– Aybim nima, oyiii? Aybim, Omina xolaga yordam kerak deb, ularnikiga chiqqanimmi!? Aybim oʻz ukalarim qatorida koʻrganim Mamatursunning soʻzlariga ishonganimmi? Oʻsha lahzalarda ularning bunday rejasi borligini bilmagandim axir!? (Xazonrezgi. Internet manbalari).

Bunday soʻroq gaplar ruhiy holatni bildiradi. Berilgan soʻroq ham javob talab qilmaydi. Javobi oʻzi bilan – aybim yoʻq.

Ichki kommunikativ belgiga koʻra soʻroq gaplar ham maʼlum vaziyatda ruhiy holatda aytiladi. Soʻroq oʻziga qaratiladi. Javobni ham oʻzi topishi lozim boʻladi. Muammoli vaziyatdan chiqish yoʻllarini izlaydi, tushkunlikka tushadi:

Har holda "jinnixona" degan nomi bor. Har kim ham yurak betlab yaqinlasha olmaydi. "Men esam ular bilan birga yashayman. Biz ularni "jinni" deymiz. Ular-chi? Ular bizni nima deyishar ekan?.. Ularning koʻzlariga biz jinni boʻlib koʻrunsak kerak". (Tohir Malik. Shaytanat).

Ushbu misolda ichki soʻroqqa oʻzi javob topishga harakat qilgani aniq ifodalanadi.

Ritorik soʻroqda kesim, koʻpincha, inkor shaklida boʻladi, lekin tasdiqni bildiradi: *Buni kim bilmaydi?* – Hamma biladi, tasdiq shaklida boʻlganda, inkorni bildiradi. Demak, ritorik soʻroqda kesim tasdiq yo inkor kategoriyasi jihatidan bu shaklning aksini bildiradi. Soʻroq, odatda, inkor maʼnosining elementlariga ega boʻladi.

Demak, soʻroq gaplarni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin:

1. Sof soʻroq gaplar. Bular javob talab qiladigan soʻroqni ifodalaydigan gaplardir. Masalan, *Bugun qayerga borasan?* Bunday soʻroq gaplar shubha, taajjub kabi ottenkalarga ham ega boʻla oladi. Buni jonli tilda intonatsiya koʻrsatadi.

2. Ritorik soʻroq gaplar. Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda soʻroq yoʻli bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). Soʻroq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, taʼsirli qilib beradi. Masalan, *Bolani kim sevmaydi?* (Hamma sevadi). Yashirin inkor mazmuniga ega boʻlgan soʻroq-inkor gaplar ritorik soʻroq gapning bir turidir. Masalan, *Bolani sevmaydigan odam bormi?* (Yoq).

Ritorik soʻroq gaplar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) yashirin javob, uning konkret mazmuni shu gapning oʻzidan bilinib turadi: *Bahorni kim sevmaydi? – Hamma sevadi*;

b) baʼzan shu tasdiq eslatiladi, lekin uning konkret mazmuni ketidan yana bir gap keltirish bilan ochiladi. Masalan, *Men senga nima degan edim? "Majlisga kechikma!"– degan edim-ku!*

3. Soʻroq-buyruq gaplar. Bunday gaplar soʻroq yoʻli bilan buyurish ottenkasini ham beradi. Masalan, *Majlisga tezroq bormaysizmi?* (Tezroq boring!)

Xulosa va takliflar. Demak, soʻroqning ifodalanishida soʻzlar tartibining ham roli bor, logik urgʻu tartib bilan ham bogʻliqdir.

Soʻroq gapning ohangi darak gapning ohangiga nisbatan yuqori boʻladi. Gapning eng soʻnggi elementining keyingi boʻgʻini darak gapda tushuvchi ohang bilan aytilsa, soʻroq gapda koʻtarilish bilan aytiladi. Soʻroq gap maxsus soʻz – element orqali ifodalanganda, bu gapning ohangi darak gapning ohangiga bir oz yaqinlashadi.

Soʻroqni bildiruvchi soʻz gapning oxirida boʻlmagan vaqtda bu element boshqa soʻzlarga nisbatan kuchli aytilib, qolganlari bunga qaraganda past ohang bilan aytiladi. Masalan, *U qanday kitoblar olgan edi?*

Xulosa qilib aytganda, soʻroq gaplarning xilma-xil maʼno nozikliklarini ifodalashga moslashayotganligi tilimizning stilistik jihatdan oʻz ichki taraqqiyot qonunlari orqali rivojlanayotganligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Монография, Тошкент, "Фан", 1983, 93-бет.

(2). Арутюнова Н.Д. Некоторые типы диалогических реакций и «почему» – реплики в русском языке "Филологические науки", М., 1970, № 3, с. 44–58.

(3). Падучева Е.В. Вопросно-ответное соответствие. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. М., "Наука", 1985, с. 234–240.

(4). Karimova F. Oʻzbek tilidagi muloqot matnlarining pragmalingvistik va psixolingvistik xususiyatlari. T., 2025, 83-bet.

(5). Лутфуллаева Д. Содда гапларда йўқлик маъносининг яширин ифодаланиши. "Ўзбек тили ва адабиёти". Тошкент, 2001, 5-son, 42–45-бетлар.